

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BO‘RIYEVA DILNOZA MADARTTOVNA

**PIKOLIN KISLOTANI AMIDLASH REAKSIYALARI VA OLINGAN
MAHSULOTLARNING XOSSALARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Kimyo fanalari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mudarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Bo‘riyeva Dilnoza Madarttovna

Pikolin kislotani amidlash reaksiyalari va olingan mahsulotlarning
xossalari.....3

Буриева Дилноза Мадарттовна

Реакции амидирования пиколиновой кислоты и свойства
полученных продуктов.....23

Burieva Dilnoza

Amidation reactions of picolinic acid and properties of the obtained
products.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works48

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BO‘RIYEVA DILNOZA MADARTTOVNA

**PIKOLIN KISLOTANI AMIDLASH REAKSIYALARI VA OLINGAN
MAHSULOTLARNING XOSSALARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Olit ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining B2022.4.PhD/K555 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-kimyo.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portolida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abdushukurov Anvar Kabirovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Maxsumov Abduhamid Gafurovich
kimyo fanlari doktori, professor
Jo'raqulov Sherzod Niyatqobilovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: Toshkent farmatsevtika instituti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "21" dekabr soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (150 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks (99871) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "6" dekabr kuni tarqatildi (2024-yil "5" dekabr da 36 raqamli reyestr bayonnomasi).


Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor


N.X.Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., professor


T.S.Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
k.f.d., professor

...

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda turli karbon kislotalarning alkil- va arilamid hosilalari tibbiyot hamda farmatsevtikada turli kasalliklarga qarshi dori vositalari, qishloq xo‘jaligida gerbitsid va fungitsidlar sifatida keng miqyosida qo‘llaniladi. Ayniqsa, pikolin kislotaning amid hosilalari saratonga qarshi ishlatilayotgan sorafenib va regorafenib (multikinaz ingibitorlari) hamda BLZ-945 (FMS inhibitori) kabi preparatlar ko‘rinishida ishlatiladi. Bu preparatlarning analoglarini yaratish, ularni olish usullarini takomillashtirish va amaliyotga qo‘llash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda karbon kislotalardan amid bog‘li birikmalar sintez qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va ushbu reaksiyalar uchun yangi katalizatorlar tavsiya qilish ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, karbon kislotalarni alifatik, aromatik, geterohalqali, birlamchi va ikkilamchi aminlar bilan amidlash reaksiyalarini metall oksidlari hamda tuzlari, metallokompleks birikmalar, nanokatalizatorlar, azot va fosforli organik birikmalar, borat efirlar va biokatalizatorlar ishtirokida olib borish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim va sanoatni rivojlantirishning uzviy bog‘liqligini ta‘minlash, shuningdek, mahalliy xom ashyo asosida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish borasida tabiiy va sintetik organik moddalar olish bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish”ga yo‘naltirilgan vazifalari belgilab berilgan¹. Bu borada, pikolin kislotaning arilamidli hosilalarining sintezini qulay usullarini topish va ularning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan tahlil qilish, jarayonlarga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni va reaksiya qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarni aniqlash hamda tarkibida yangi farmakofor guruhlari bo‘lgan biologik faol moddalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4992-sonli qarori, 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli qarori va 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Karbon kislotalarning alkil- va arilamid hosilalarining maqsadli sintezlarni amalga oshirish boʻyicha jahonning yetakchi olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, xorijlik tadqiqotchilar A.Lemmerer, M.Oruganti, V.Andre, S.Jin, X.Wen, S.N.Adamovich, Chiragkumar J.Gohil, Malleshappa N.Noolvi, H.Charville, Z.Zhang, P.Tang, Adam P.Zarecki, Jacek L.Kolanowski, T.Wojciech, Carlo Sambigiagio, Rachel H.Munday, Stephen P.Marsden, A.John Blacker, Patrick C., Charlotte E.Coomber, Victor Laserna, Liam T.Martin, Peter D.Smith, Helen C.Hailes, Michael J.Porter, Tom D.Sheppard va boshqalar karbon kislotalarning alkil- va arilamidlari hamda ularni turli hosilalarining sintezi, modifikatsiyasi hamda biologik va farmakologik faolliklarini oʻrganish bilan shugʻullanganlar.

Respublikamizda mazkur yoʻnalish rivojiga I.P.Sukervanik, A.R.Abdurasuleva, N.G.Sidorova, H.Yu.Yuldashev, Q.N.Ahmedov, A.K.Abdushukurov va boshqalar aminobirikmalarni atsillash-xloratsetillash reaksiyalarini takomillashtirishga hissalarini qoʻshishgan. Bundan tashqari H.S.Tojimuhamedov va U.Ch.Ahmedovlar tomonidan N,N-dietilgidrazinning alifatik, aromatik karbon kislotalarni aminlari bilan, E.N.Xurramov esa bir nechta oksikarbon kislotalarning aromatik aminobirikmalar bilan ammoniy tuzlari va amid birikmalarni sintez qilishgan hamda tegishli qonuniyatlarni aniqlashgan.

Adabiyotlar tahlilining koʻrsatishicha, karbon kislotalar va aminlardan kislota amidlari sintezi boʻyicha keng miqyosda tajriba natijalari boʻlishiga qaramasdan, halqasida geteroatom tutgan karbon kislotalar bilan aromatik aminobirikmalarning reaksiyalari yetarli darajada oʻrganilmagan. Shu sababli, pikolin kislotani aromatik aminlar bilan reaksiyalarini oʻrganish va sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini aniqlash alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № Ф3-2017102476 “Izomer aminofenollarni xloratsetillash va xloratsetil mahsulotlar asosida biologik faol moddalar sintez qilish” (2018-2019-y.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pikolin kislotani amidlash reaksiyalari va olingan mahsulotlarning xossalari tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pikolin kislotaning aromatik aminlar bilan reaksiyalarini mikrotoʻlqin taʼsirida va yuqori haroratda olib borish hamda tegishli amidlar hosil boʻlishi unumiga reaksiya davomiyligining taʼsirini oʻrganish;

amidlash reaksiyalarining unumiga katalizator turi va reagentlar mollar nisbatining taʼsirini aniqlash hamda optimal sharoitini topish;

pikolin kislota va aromatik aminlardan to'rtlamchi ammoniy tuzlarining hosil bo'lish sharoitlarini aniqlash;

reaksiya natijasida olingan organik birikmalarning tuzilishini fizik-kimyoviy tadqiqot usullar yordamida isbotlash, hamda ularning qo'llanilish sohasini asoslash;

sintez qilingan arilamid hosilalarininig biologik faolligini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida pikolin kislota, toluidin, anizidin, aminofenol, nitroanilin, aminobenzoy kislota, ksilidin izomerlari, anilin, p-bromanilin, 2,4-dixloroanilin, α -naftilamin, 2-amino-4-metil-piridin, 2,6-diaminopiridin, 1,2-fenilendiamin va ular asosida sintez qilingan mahsulotlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini pikolin kislota ning sp^2 -gibridlangan uglerod atomida nukleofil almashinish reaksiyalari, N-atsillash, N-protonlash, N-atsillash va N-protonlash reaksiya mahsulotlarining fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida yuqqa qatlam xromatografiyasi (YuQX), IQ, 1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), biologik tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pikolin kislota ni arilamidlash reaksiyalarida ortoborat kislota katalizator sifatida qo'llanilgan va bu katalizator ishtirokida bir bosqichda kislota amidlari hosil bo'lishi isbotlangan;

pikolin kislota ni amidlash reaksiyalarida izomer aromatik aminlarni qutblanuvchanligi va asosiligi ortib borishi qatorida mahsulot unumi ortishi isbotlangan;

para holatda elektronodonor va elektronoakseptor o'rinbosarlar saqlagan aminlarda asosilikning kamayishi bilan aminning nukleofil almashinish reaksiyalariga kirishish qobiliyati p-aminofenol>p-anizidin>p-toluidin>p-bromanilin>p-aminobenzoy kislota>p-nitroanilin qatorida kamayib borishi aniqlangan;

ilk bor pikolin kislota ning aromatik aminobirikmalar bilan to'rtlamchi ammoniy tuzlari erituvchi etil spirti ishtirokida sintez qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

N-(2-gidroksifenil)-pikolinamid va N-(4-gidroksifenil)-pikolinamidlar organizmda hosil bo'ladigan faol kislorodni ingibirlovchi antiradikal xossasini namoyon qilishi aniqlangan;

4-Metilfenilammoniy pikolinat, 3-gidroksifenilammoniy pikolinat va N-(naftanel-1)-pikolinamidlarning fazoviy tuzilishlari hamda barcha kristallografik kattaliklari isbotlangan va Xalqaro Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yuqqa qatlam xromatografiyasi (YuQX), IQ, 1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT) va dalolatnomalar mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, aromatik aminlarning pikolin kislotasi bilan atsillash reaksiyalarining tahlili asosida olingan natijalardan aromatik aminobirikmalarda boradigan nukleofil almashinish reaksiyalari yordamida olib boriladigan maqsadli sintezlarni amalga oshirilganligi va pikolin kislotasining aromatik aminobirikmalar bilan protonli ammoniy tuzlari hosil bo'lish reaksiyalari amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pikolin kislotasining aromatik aminobirikmalar bilan reaksiyalari natijasida 22 ta pikolin kislota arilamidlari va 13 ta pikolin kislotaning protonli ammoniy tuzlari sintez qilinganligi hamda birikmalar orasida yuqori antiradikal xususiyatga ega moddalar borligi va ularning keyingi amaliy tadqiqotlar uchun izlanish obyekti bo'la olishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pikolin kislotasining aromatik aminlar bilan reaksiyalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

4-Metilfenilammoniy pikolinat, 3-gidroksifenilammoniy pikolinat, N-(naftanel-1) pikolinamid rentgen tuzilish tahlili (RTT) natijalari Kembridj kristallografik markazi ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (Cambridge Crystallographic Data Centre ning 2023-yil 5-apreldagi 2254090-sonli, 2023-yil 13-apreldagi 2256004-sonli, 2024-yil 29-sentyabrdagi 2387687-sonli ma'lumotnomalari). Natijada karbon kislota hosilalari tarkibiga kiruvchi yangi moddalarning tuzilishini aniqlash imkonini bergan;

N-(p-metoksifenil)-pikolin amid bo'yicha texnik shart va texnologik yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan (Ts 200845944-114:2024)) tashkilotning standarti olindi. Natijada N-(p-metoksifenil)-pikolin amidini sintez qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 10 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola respublikada, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati haqida ma'lumot berilgan, maqsad va vazifalari keltirib o'tilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati,


ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan, shuningdek, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Karbon kislotalar va aminlar asosida amidlar sintezi**" deb nomlangan **birinchi bobida** mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlarda karbon kislota hamda aminlarining turli xil sharoitlardagi reaksiyalari, reaksiyalardan olingan mahsulotlarning tuzilishi va amaliy ahamiyati hamda turli karbon kislotalarning alkil- va arilamidlarining sintezi, reaksiyalarning sharoitlari, erituvchi va qo'llanilgan katalizator tabiatining reaksiyalar yo'nalishlariga ta'siri kabi ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilib ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan va ular asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning "**Pikolin kislotasining aromatik aminlar bilan reaksiyalari (olingan natijalar va ularning muhokamasi)**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** olingan tadqiqot natijalari keltirilgan va sintez qilib olingan pikolin kislota arilamidning hamda to'rtlamchi ammoniy tuzlarining tuzilishi tahlil qilingan.

Pikolin kislota arilamidlarini mikroto'lqin ta'sirida olinishi


Pikolin kislota molekulasining konformatsiyasining barqarorligiga erituvchi ta'sirini ko'rsatish mumkin. Proton erituvchi pikolin kislota molekulasining N



atomini solvatlaydi, aproton erituvchi esa gidroksil guruh vodorodini solvatlaydi. Qutbsiz aproton erituvchilarda ichki vodorod bog'lar hosil bo'lishi osonlashadi.

Natijada karboksil guruhi C atomining elektron zichligi ortadi va aminning karboksil uglerod atomiga nukleofil hujumi qiyinlashadi.

Shuning uchun pikolin kislota va aromatik aminlardan to'g'ridan-to'g'ri amid olish reaksiyalari erituvchisiz olib borildi hamda mikroto'lqin ta'sirida va qizdirib tegishli arilamidlar sintez qilindi (1-22).



Bu yerda X=2-OCH₃ (1); 4-OCH₃ (2); 2-CH₃ (3); 3-CH₃ (4); 4-CH₃ (5); 2-OH (6); 3-OH (7); 4-OH (8); 2,4-CH₃ (9); 2,5-CH₃ (10); -H (11); 4-Br (12); 2,4-


Cl (13); 3-NO₂ (14); 4-NO₂ (15); 2-COOH (16); 3-COOH (17); 4-COOH (18); α-naftilamin (19); 2-amino-4-metil-piridin (20); 2,6-diaminopiridin (21); 1,2-fenilendiamin (22).

Pikolin kislota va aromatik aminlar asosida pikolin kislota arilamidlarini sintez qilishning eng qulay usullarini topish uchun reaksiyalar turli xil sharoitlarda olib borildi. Amid olish reaksiyalarida mahsulotning hosil bo'lish unumiga reaksiya davomiyligining ta'siri va boshlang'ich moddalar mol nisbatlarining ta'siri p-anizidin misolida o'rganildi (1-jadval).

Pikolin kislotaning p-anizidin bilan reaksiyasida mahsulot unumining reagentlarning mol nisbati va reaksiya davomiyligiga bog'liqligi; (Pikolin kislota:p-anizidin) Mahsulot - 2

Vaqt, (min)	unumi %, 1:1 mol nisbatda	unumi %, 1,5:1 mol nisbatda	unumi %, 2:1 mol nisbatda	unumi %, 2,5:1 mol nisbatda	unumi %, 3:1 mol nisbatda
10	23	25	27	27	27
20	25	32	42	43	45
30	31	36	54	54	56
40	35	40	63	65	68
50	35	40	63	65	68
60	35	40	63	65	68
	1:1 mol nisbatda	1:1,5 mol nisbatda	1:2 mol nisbatda	1:2,5 mol nisbatda	1:3 mol nisbatda
10	23	26	32	33	33
20	25	29,4	41	43	45
30	31	32	42,5	44	45
40	35	39	47	48	52
50	35	39	47	48	52
60	35	39	47	48	52


1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra reaksiyada kislota: amin qatorida boshlang'ich moddalarning mol miqdori ortgan sayin mahsulot unumi ham ortgan. Reaksiya davomiyligi 40 daqiqagacha har 10 daqiqaga orttirilganda unumning oshishi kuzatilgan va 40 daqiqadan ortiq vaqtda olib borilgan reaksiyalarda mahsulot unumining o'zgarishi sezilmagan. Boshlang'ich moddalarning miqdori ortishi bilan




mahsulot unumining ortishini ortiqcha karbon kislota yoki amin pikolin kislotaning karboksil guruhi kislorod atomi bilan vodorod bog' hosil qilishi va karboksil guruh uglerod atomiga aminning nukleofil hujumini osonlashishi bilan tushuntirish mumkin. Kislota: amin qatorida boshlang'ich moddalarning mol nisbatlari 1:2 yoki 2:1 bo'lganda, 40 daqiqada olib borilgan reaksiyalari o'zaro taqqoslanganda pikolin kislota 2 mol miqdorda, p-anizidin 1 mol miqdorda olingan va 40 daqiqa davomida olib borilgan reaksiyasida mahsulot unumi eng yuqori bo'lgan hamda bu sharoitni reaksiyaning optimal sharoiti qilib belgilab olingan. Bu sharoitda unumning yuqori bo'lishiga sabab, birinchidan, O---HO dagi vodorod bog' barqarorligi O---HN ga nisbatan yuqori. Ikkinchidan, pikolin kislotaning qutbliligi p-anizidinning qutbliligidan yuqori va qutbliligi yuqori moddalar mikroto'lqinlarni kuchli o'zlashtiradi hamda natijada muhitning tez isishi sodir bo'ladi.

Tajribalarda olingan natijalarga va adabiyot ma'lumotlariga tayangan holda reaksiyalar uchun reaksiyaning borish mexanizmini taklif qilgan. Unga ko'ra, reaksiya pikolin kislotaning karboksil guruhi kislorodi ikkinchi kislota gidroksil guruhi protoni bilan, gidroksil guruhidagi vodorod esa amin azotidagi elektron juflar bilan vodorod bog' orqali A1 oraliq kompleksni hosil qilish bilan boshlanadi va bu oraliq kompleksga ikkinchi amin molekulasini pikolin kislotaning karboksil guruh uglerod atomiga nukleofil sifatida hujum qilgan. Hosil bo'lgan A2 oraliq

birikmaning qayta guruhlanishi natijasida pikolin kislotasi amidi va ammoniy pikolinat hosil bo'lgan.



Olib borilgan tajribalarda qo'shimcha mahsulot sifatida to'rtlamchi ammoniy tuzlari ham hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan to'rtlamchi ammoniy tuzlari ham amid hosil bo'lishida ishtirok etadi. Tuzning amid hosil bo'lishida qatnashishini ifodalovchi reaksiya mexanizmi ko'ra A pikolin kislotaning karboksil guruhi kislorodi ammoniy kationi protoni bilan, gidroksil guruhidagi vodorod esa amin azotidagi elektron juftlar bilan vodorod bog' hosil qilgan. Bu esa, karboksil guruh uglerod atomiga aminning nukleofil hujumini osonlashtirgan va A3 oraliq kompleksni hosil qilgan. A3 dan A4 hosil bo'lgan. A4 ning qayta guruhlanishidan pikolin kislotasi amidi va ammoniy pikolinat hosil bo'lgan.



Reaksiyalarda mahsulot hosil bo'lishi unumini oshirish maqsadida dastlab, reaksiya natijasida hosil bo'lgan suvni yo'qotish uchun suvni tortib oluvchi modda: suvsiz Na_2SO_4 ni qo'shib reaksiya olib borilgan. Ammo reaksiyalarda mahsulot unumi o'zgarmagan. Tadqiqotlar davomida aromatik aminlarni N-atsetillash bilan boradigan jarayonlarda sirka kislotasining katalitik faolligi o'rganilgan. Buning uchun reaksiyalar kislotasi, amin va sirka kislotasi 1:1:1 mol nisbatida olib borilgan. Sintez qilingan mahsulot YuQX bilan tekshirilganda olib borilgan reaksiyalarda ikki xil mahsulot, pikolin amid hosilasi bilan bir qatorda sirka kislotasi amid hosilasi ham hosil bo'lgan. Bu esa reaksiyada hosil bo'lgan qo'shimcha mahsulotlarni ajratish uchun ortiqcha erituvchilarni talab qiladi. Shuning uchun sirka kislotasi reaksiyalarda katalizator sifatida qo'llanilmagan. So'ngra reaksiyalarida ortoborat kislotasi katalizator sifatida qo'llanilgan va katalizator ortoborat kislotaning mol nisbatlarini o'zgartirganda mahsulot unumining qanday o'zgarishi o'rganilgan. Bunda reaksiya vaqti davomiyligi 40 daqiqa davomida olib borilgan. Boshlang'ich moddalarning mol nisbatlari 1 mordan olingan. Katalizatorning miqdori esa 0,25, 0,5, 0,75, 1, 1,25, 1,5, 1,75, 2 mol nisbatlarda olingan. Ortoborat kislotaning 0,25, 0,5, 0,75, 1 mol

nisbati qatorida o'zgartirilganda mahsulot unumi ortib borgan, 1,25, 1,5, 1,75, 2 mol nisbatlarda olib borilgan reaksiyalarda esa mahsulot unumi o'zgarmagan (2-jadval).

2-jadval

N-(4-metoksifenil)-pikolinamidning hosil bo'lish unumiga katalizator ta'siri

Pikolin kislota: p-anizidin: katalizator; 40 min

B(OH) ₃ ning mol nisbati o'zgarishi	1:1:0,25	1:1:0,5	1:1:0,75	1:1:1	1:1:1,25	1:1:1,5	1:1:1,75	1:1:2
Mahsulot unum %	36	38	41	49	49	49	49	49

Reaksiyalarning borishiga reaksiya davomiyligining ta'siri o'rganildi. Bunda reaksiyalar pikolin kislota, p-anizidin va ortoborat kislotani 1:1:1 mol nisbatlarda, 30, 40, 50 va 60 daqiqa davomida olib borildi. Dastlab reaksiya davomiyligi ortishi bilan 40 daqiqagacha mahsulot unumi ortdi. Reaksiya davomiyligi 40 daqiqadan orttirilganda mahsulot unumi o'zgarmay qoldi (3-jadval).

3-jadval

Mahsulot unumining reaksiya davomiyligiga bog'liqligi. Mahsulot - 2

Boshlang'ich moddalar	Pikolin kislota: p-anizidin: ortoborat kislota 1:1:1				
Reaksiya davomiyligi	20 min	30 min	40 min	50 min	60 min
Mahsulot unum %	32	43	49	49	49

Tadqiqotlar davomida reaksiyalarning optimal sharoitini topish uchun mahsulotning hosil bo'lish unumiga boshlang'ich kislota va aminning mol nisbatlari o'zgarishining ta'siri o'rganildi. Buning uchun pikolin kislota: p-anizidin: B(OH)₃ qatorida pikolin kislotaning mol nisbatlari orttirilgan. Bunda pikolin kislotaning miqdori ortishi bilan mahsulot unumi pasayib borgan. Aksincha, aminning miqdori ortishi bilan reaksiyada mahsulot unumi ortgan (4-jadval).

4-jadval


N-(4-metoksifenil)-pikolinamidning hosil bo'lish unumiga kislota va aminning mol nisbatlarining ta'siri


Pikolin kislota: p-anizidin: B(OH)₃, 40 minut.

Mahsulot	Mol nisbat o'zgarishi (pikolin kislota)	Mahsulot unumi %	Mol nisbat o'zgarishi (p-anizidin)	Mahsulot unumi %
N-(4-metoksifenil)-pikolinamid	1:1:1	49	1:1:1	49
	1,5:1:1	44	1:1,5:1	58
	2:1:1	36	1:2:1	75
	2,5:1:1	31	1:2,5:1	78
	3:1:3	18	1:3:1	79


Tadqiqot natijalariga ko'ra, pikolin kislota: p-anizidin: ortoborat kislota qatorida 1:2:1 nisbatda eng yaxshi natijaga erishildi va qolgan aminlar bilan reaksiyalar shu nisbatda 40 daqiqa davomida olib borildi (5-jadval).

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida reaksiyaning oraliq bosqichida katalizatorning ishtiroki o'rganildi hamda tahlil qilindi. Reaksiyaning borish mexanizmi taklif qilindi:





Taklif qilingan mexanizmga ko‘ra dastlab ortoborat kislotasi 2 amin azot atomi bilan elektron juftlari hisobiga bog‘ hosil qilib birikadi. Hosil bo‘lgan 3 dan bir molekula suv ajralganidan keyin 4 hosil bo‘ladi va ikkinchi molekula ortoborat kislotasi bilan ta’sirlashishidan hosil bo‘lgan 5 amin bilan birikib 6 ga aylanadi hamda undan suv ajralib yana amin bilan birikishidan hosil bo‘lgan 7 oraliq birikma kislorodi pikolin kislotasi protonini biriktiradi. Karboksilat anioni esa bor atomi bilan birikadi. Hosil bo‘lgan 8 ning qayta guruhlanishi hisobiga 9,10 lar hosil bo‘ladi. 10 birikmadagi elektronga boy N atomi elektron juftlari 9 atsiloksiboranning karbonil guruh uglerod atomiga nukleofil hujumi natijasida 11 oraliq birikma hosil bo‘ladi va bu birikma qayta guruhlanib 12 hamda 13 ni hosil qildi, 12 ning qayta guruhlanishidan ortoborat kislotasi va pikolin kislotasi amidi 14 hosil bo‘ladi.



Aminning katalizator bilan hosil qilgan 3 oraliq birikma bilan kislotaning ta’sirlashuvidan amidlarga osonlik bilan aylanmaydigan aminokarboksilat komplekslarini

hosil qiladi. Bu komplekslarni qizdirish orqali ham, kislotasi yoki amin qo‘shish orqali ham amid mahsulotga aylantirib bo‘lmaydi.

Demak pikolin kislotasi miqdori orttirilganda aminokarboksilat komplekslari hosil bo‘lishi ortadi va mahsulot unumining pasayishiga olib keladi.

5-jadval

Pikolin kislotaning arilamidlarini olish reaksiyalarining natijasi
(40 min, RW)


Boshlang‘ich amin	RW Kislotasi: amin 2:1 Mahsulot unumi, %	RW Kislotasi: amin :B(OH) ₃ 1:2:1 Mahsulot unumi, %	T _s , °C	R _f Atseton: benzol 1:5	Mahsulot T.r.
o-anizidin	32	40	112-114	0,80	1
p-anizidin	63	70	89-90	0,69	2
o-toluidin	36	43	62	0,84	3
m-toluidin	45	52	-	0,83	4

p-toluidin	52	62	100	0,8	5
o-aminofenol	47	58	181-183	0,53	6
m-aminofenol	38	49	160-162	0,67	7
p-aminofenol	68	78	157	0,69	8
2,4-ksiledin	19	38	102-103	0,74	9
2,5-ksiledin	27	32	66-67	0,84	10
anilin	43	51	72-73	0,59	11
p-bromanilin	42	57	141	0,83	12
2,4-dixloranilin	30	75	147	0,87	13
m-nitroanilin	16	34	164-165	0,73	14
p-nitroanilin	11	27	227	0,75	15
2-aminobenzoy kislota	29	37	70-72	0,64	16
3-aminobenzoy kislota	35	58	T°C<500	-	17
4-aminobenzoy kislota	26	49	T°C<500	-	18
α -naftilamin	29	48	125	0,67	19
2-amino-4-metil-piridin	-	38	170	0,52	20
2,6-diaminopiridin	30	40	132-134	0,405	21
1,2-fenilendiamin	38	73	213-214	0,35	22

Jadval natijalariga ko'ra, pikolin kislotaning aromatik aminlar bilan to'g'ridan to'g'ri amid olish reaksiyalari mikroto'lqin ta'sirida katalizatorsiz va ortoborat kislota katalizatorligida olib borilgan reaksiyalari taqqoslanganda har ikki holatda arilamidlar hosil bo'lgan. Katalizator ortoborat kislota ishtirokidagi reaksiyalarda mahsulot unumi katalizatorsiz olib borilgan reaksiyalarga qaraganda ortgan. Ayniqsa, katalizatorning katalitik ta'siri pikolin kislotaning 2-amino-4-metil-piridin bilan reaksiyalarida yaqqol ko'zga ko'ringan. 2-Amino-4-metil-piridin bilan katalizatorsiz sharoitda olib borilgan reaksiyasidan mahsulot olishga erishilmagan. Katalizator ortoborat kislota qo'llanilganda 38 % unum bilan amid birikma olingan. Bundan tashqari katalizatorning katalitik ta'siri quyidagi aminlar bilan olib borilgan reaksiyalar natijasida mahsulot unumining farqi katalizatorsiz olib borilgan reaksiyalarga nisbatan p-bromanilinda 15, p-nitroanilinda 16, m-nitroanilinda 18, 2,4-ksilidinda 19, α -naftilaminda 19, 4-aminobenzoy kislota 23, 3-aminobenzoy kislota 23, 1,2-fenilendiaminda 35, 2,4-dixloranilinda 45 foizga ortgan.

5-Jadval natijalariga ko'ra, aromatik halqada $-NH_2$ guruhga nisbatan para holatda joylashgan elektronodonor o'rinbosar saqlagan p-aminofenol, p-anizidin, p-toluidin, 2,4-dixloranilinlarning pikolin kislotasi bilan olib borilgan reaksiyalarida mahsulot unumi yuqori chiqqanligini bu birikmalarda $-OH$, $-OCH_3$, $-Cl$ lar +M ta'sir bilan, $-CH_3$ guruhning +J ta'sir bilan elektronlar zichligini $-NH_2$ guruhga yo'naltirishi va natijada aminning asosligi ortishi bilan tushuntirish mumkin.

Mikroto'lqinli ta'sirida ma'lum bir moddaning isitish xususiyatlari materialning dielektrik xususiyatlariga bog'liq. Molekulalarning qutbliligi qanchalik yuqori bo'lsa mikroto'lqin ta'sirida harakati yuqori bo'ladi va bu shu sharoitda unumning yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan: aminofenol izomerlarida molekulaning qutblanishi quyidagicha: $-OH$ guruhi +M ta'sir bilan elektronlar zichligini $-NH_2$ guruhga



yoʻnaltirishi va $-NH_2$ guruhining $-J$ taʼsiri natijada aminning asosligi va qutbliligi ortadi. $-OH$ guruh $-NH_2$ guruhga nisbatan para holatda joylashgan elektronlar oqimi kelishilgan yoʻnalish boʻyicha azot atomiga uzatiladi va azotning manfiy zaryad qiymati ortadi. Orto holatda joylashganda ham elektronlar oqimi kelishilgan yoʻnalish boʻyicha azot atomiga uzatiladi, lekin azotning juft elektronlari va gidroksil guruh protoni vodorod bogʻ hosil qilishi natijasida azotning manfiy zaryad qiymati nisbatan kamayadi. $-OH$ guruhi meta holatda joylashganda amin guruhi azot atomiga elektrolar $-J$ taʼsir bilan uzatiladi va manfiy zaryad qiymati o- va p-holatlariga nisbatan kamroq boʻladi. Kislota amidlarining hosil boʻlishi m-aminofenol < o-aminofenol < p-aminofenol qatorida ortib boradi.

Shunday qilib pikolin kislotaning aromatik aminlar bilan kislota arilamidlarini olish reaksiyalarini oʻrganishga oid olib borilgan izlanishlar natijasida pikolin kislotaning arilamidlarini sintez qilishning optimal sharoitlari topilgan. Olingan natijalar va nazariy maʼlumotlar asosida reaksiyalarning mexanizmlari taklif qilingan.

Qizdirish usuli bilan pikolin kislota arilamidlarini sintez qilish

Olib borilgan tadqiqotlar davomida pikolin kislotasining aromatik arilamidlarini sintez qilishni qizdirish usuli bilan erituvchisiz sharoitda katalizatorsiz va katalitik sharoitda olib borildi.

Qizdirib olib borilgan reaksiyalarning dastlabki tadqiqotlari pikolin kislotani anilin, p-toluidin va p-anizidinlar bilan 1:1 mol nisbatlarda 40 daqiqada davomida olib borildi.

6-jadval

Pikolin kislotaning arilamidlarini olish reaksiyalarining natijasi
(40 min)

Boshlangʻich amin	Harorat °C	Unum %	Mahsulot T.r.
anilin	140	18,4	11
p-toluidin	170	21	5
p-anizidin	170	23	2

Reaksiyalar natijasida mahsulot unumi past boʻlganligi sababli reaksiyalarni turli xil sharoitlarda olib borilgan.

Reaksiyaning optimal sharoitini topish uchun p-anizidin tanlab olindi. Pikolin kislota va p-anizidinning reaksiyalari boshlangʻich moddalarning turli nisbatlarida hamda turli xil vaqt davomiyligida olib borildi. Reaksiyalar natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

7-jadval

N-(4-metoksifenil)-pikolinamidning hosil boʻlish unumiga kislota va aminning mol nisbatlarining taʼsiri

Pikolin kislota: p-anizidin, 40 min	Mol nisbat	1:1	1,5:1	2:1	2,5:1	3:1
	Unum, %	23	42,5	53	53	53
	Mol nisbat	1:1,5	1:2	1:2,5	1:3	1:3,5
	Unum, %	28,5	30	33	35	35

Olingan natijalarga koʻra, pikolin kislotaning mol nisbatini oshirib borilganda amidning unumi 2 mol nisbatgacha oshirilganda oshib borgan hamda 2,5 va 3 ga oshirilganda mahsulot unumi oʻzgarmagan. p-Anizidinning mol miqdori ortishi bilan ham mahsulot unumida oʻsishi kuzatilgan hamda 3 va 3,5 ga orttirilganda

mahsulot unumi deyarli o'zgarmay qolgan. Boshlang'ich moddalarning miqdori ortishi bilan mahsulot unumining ortishini reaksiya uchun ortiqcha olingan karbon kislota yoki amin va reaksiyalarning oraliq bosqichida hosil bo'ladigan to'rtlamchi ammoniy tuzlari pikolin kislotaning karboksil guruhi kislorod atomi bilan vodorod bog' hosil qilishi va karboksil guruh uglerod atomiga aminning nukleofil hujumi osonlashishi bilan izohlash mumkin.

Tajribalarning keyingi bosqichlarida pikolin kislota arilamidlarinig hosil bo'lish unumiga reaksiyaning davomiyligi ta'sir o'rganildi. Pikolin kislotaning anilin, p-toluidin va p-anizidin bilan reaksiyalari boshlang'ich moddalar mol nisbatlari Pikolin kislota:amin 2:1 nisbatda turli xil davomiylıklarda olib borilganda quyidagi natijalar olindi.

8-jadval

N-(aril)-pikolinamidlarning hosil bo'lish unumiga reaksiya vaqtining ta'siri

Reaksiyaning davomiyligi, min.		30	35	40	45	50	60	90	120
Mahsulot unumi, %	p-anizidin	44	48	53	48	45	43	35	35
	p-toluidin	35	38	42	39	28	22	19	15
	Anilin	22	31	39	40	35	30	27	27

Jadval natijalariga ko'ra, qizdirish bilan olib borilgan reaksiyalarda reaksiya dastlab 40 daqiqagacha orttirilganda mahsulot unumining oshishiga olib kelgan. Vaqt davomiyligi 40 daqiqadan ortishi bilan mahsulot unumining pasayishi kuzatildi va qolgan reaksiyalar 40 daqiqa davomida olib borilgan.

Qizdirish bilan olib borilgan reaksiyalarda pikolin kislota arilamidlarini sintez qilish reaksiyalari ortoborat kislota katalizatori ishtirokida olib borildi. Buning uchun reaksiyalar boshlang'ich moddalarning har xil mol nisbatlarda va har xil vaqt davomiyligida olib borildi. Reaksiyalar dastlab boshlang'ich moddalarning mol nisbatlari o'zgartirib olib borilgan (9-jadval).

9-jadval

N-(4-metoksifenil)-pikolinamidning hosil bo'lish unumining turli omillarga bog'liqligi

Boshlang'ich moddalar	Mol nisbatlat	Vaqt, min	Mahsulot unumi, %
Pikolin kislota: p-anizidin: ortoborat kislota	1:1:1	40	53
	1,5:1:1		44
	2:1:1		39
	2,5:1:1		27
	3:1:1		10
	1:1,5:1		57
	1:2:1		68
	1:2,5:1		68
	1:3:1		71

Boshlang'ich moddalar mol nisbatlari pikolin kislota:p-anizidin:ortoborat kislota 1:2:1 bo'lganda yuqori unumga erishildi va shu nisbatda N-(4-metoksifenil)-pikolinamidning hosil bo'lish unumiga vaqtni davomiyligi ta'siri o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, dastlab reaksiya vaqti 40 daqiqagacha ortib borishi bilan mahsulot unumi ortgan va 40-45 daqiqa oralig'ida reaksiyada mahsulot unumi deyarli o'zgarmagan. Reaksiyani olib borish vaqti 45 daqiqadan ortgan sari mahsulot unumi pasayishi kuzatilgan (10-jadval).

N-(aril)-pikolinamidlarining hosil bo'lish unumiga reaksiya vaqtining ta'siri
(Pikolin kislota : amin: ortoborat kislota 1:2:1)

Reaksiyaning davomiyligi, min	30	35	40	45	50	60	90	120	
Mahsulot unumi, %	p-anizidin	56	63	68	68	66	40	35	30
	p-toluidin	38	42	55	54	46	36	23	21
	Anilin	32	38	45	47	37	31	30	30

Pikolin kislotani aromatik aminlar bilan qizdirish va erituvchisiz sharoitdagi reaksiyalari 160-170°C haroratda, katalizatorsiz sharoitda kislota: amin 2:1 nisbatda 40 daqiqada, ortoborat katalizatorligida kislota: amin: katalizator 1:2:1 nisbatda 40-45 daqiqa oralig'ida olib borildi. Reaksiya natijalari 11-jadvalda keltirilgan.

Pikolin kislolaning arilamidlarini olish reaksiyalarining natijasi
(Pikolin kislota : p-anizidin : B(OH)₃, 40 minut)
















Boshlang'ich amin	Kislota: amin	Kislota: amin: katalizator	Mahsulot T.r.
	2:1 Mahsulot unumi, %	1:2:1 Mahsulot unumi, %	
o-anizidin	23	35	1
p-anizidin	53	68	2
o-toluidin	19	27	3
m-toluidin	22	35	4
p-toluidin	42	55	5
o-aminofenol	41	56	6
m-aminofenol	38	45	7
p-aminofenol	52	71	8
2,4-ksiledin	17	30	9
2,5-ksiledin	15	22	10
anilin	39	45	11
p-bromanilin	32	43	12
2,4-dixloranilin	23	69	13
m-nitroanilin	13	28	14
p-nitroanilin	10	19	15
2-aminobenzoy kislota	10	smola	16
3-aminobenzoy kislota	19	50	17
4-aminobenzoy kislota	13	42	18
α-naftilamin	23	40	19
2-amino-4-metil-piridin	-	29	20
2,6-diaminopiridin	12	36	21
1,2-fenilendiamin	27	63	22

Pikolin kislota va aromatik aminlardan qizdirish bilan to'g'ridan to'g'ri amid sintezi erituvchisiz, katalizatorsiz va ortoborat kislota ishtirokida olib borilganda pikolin kislota arilamidlari hosil bo'lgan. Reaksiyalarda katalizator ortoborat kislolaning ishtiroki natijasida mahsulot unumi ortgan. Qizdirish bilan olib borilgan reaksiyalarda 2-amino-4-metil-piridin bilan katalizatorsiz sharoitda olib borilgan reaksiyasidan kutilgan amid mahsulot olinmagan. Katalizator ortoborat kislota qo'llanilganda 29 % unum bilan N-(4-metilpiridin-2-il)-pikolinamid olingan. Ayniqsa, ortoborat kislolaning katalitik ta'siri 2, 8, 13, 17, 18, 19, 21 va 22 tartib raqamli amidlar sintezida yaqqol ko'zga ko'ringan.







Amidlarni qizdirish bilan erituvchisiz sintez qilishning afzalliklari bor: jarayon oddiy; erituvchilar talab qilinmaydi va reaksiya qisqa vaqtda boradi. Ushbu

afzalliklarga qaramay, usulning bir nechta kamchiliklari mavjud: ishlatiladigan aminlar ham, karbon kislotalar ham termik barqaror bo‘lishi kerak; 200°C dan past erish nuqtasiga ega bo‘lishi, uchuvchan bo‘lmasligi va yuqori qaynash nuqtasiga ega bo‘lishi kerak. Haddan tashqari qizib ketish smola hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin, holbuki, yetarlicha yuqori haroratgacha qizdirilmasa, reaksiya tugamaydi. Shu sabablarga ko‘ra, bu usul to‘g‘ridan-to‘g‘ri amid hosil qilish uchun keng qo‘llaniladigan usulga aylanmagan.

